

YUSUF XOS HOJIBNING “QUTADG‘U BILIG” ASARIDA KOMIL INSON MASALASINING YORITILISHI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15628610>

Ismoil SAIFNAZAROV

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori,
Falsafa fanlari doktori, professor

Annotatsiya: ushbu maqolada Yusu Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari va unda aks etgan bazi masalalarga to‘xtalib o‘tildi. Jumladan, jamiyatda inson va uning kamoloti, uning fazilatlari masalasi hamda komil insonni shakllantirishda oila va jamiyatning o‘rni va ahamiyati yoritildi.

Kalit so‘zlar: “Qutadg‘u bilig”, ilm, bilim, komil inson, oila, jamiyat, davlat, adolat, aql, tafakkur, o‘tmish.

Abstract: This article discusses Yusu Yusuf Khos Hajib’s work “Qutadgu Bilig” and some of the issues reflected in it. In particular, the issue of man and his perfection in society, his qualities, and the role and importance of family and society in the formation of a perfect person were highlighted.

Key words: “Kutadgu bilig”, science, knowledge, perfect person, family, society, state, justice, mind, thought, past.

Tarixdan ma’lumki inson kamolotida oilaning o‘rni va ahamiyati beqiyozdir. Ushbu masla yuzasitan juda ko‘plab faylasuf va mutafakkirlar o‘z asarlarida bayon qilganlar. Inson tarbiyasi va kamoloti bobida yozilgan adabiyotlar qatorida Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari bo‘lib unda ijtimoiy hayotga ta’luqli barcha masalalar qamrab olingan.

“Qutadg‘u bilig”da Komil inson tarbiyasi asarning asosiy maqsadlaridan biridir. Olim o‘z asari orqali ideal insonni o‘z zamonidagi jamiyatning meyorlari doirasida, shu bilan birga oddiy insoniy ehtiyojlardan, xohish-istaklardan kechmasdan yashovchi shaxs sifatida tasavvur qilgan. Yusuf Xos Hojib e’tibor qaratgan asosiy axloqiy masalalardan biri tarbiyadir. Bunda asosiy o‘rinda oila va farzand tarbiyasi turadi. Ushbu masalaga Sharqda nafaqat Yusuf Xos Hojib, balki, boshqa olimlar ham e’tibor qaratib kelganlar. Mutafakkir o‘z xalqning an’alarini, yashash tarzini, oilaviy axloqiy tarbiya qonun-qoidalarini yaxshi o‘rgangan holda, ularni falsafiy jihatdan talqin qilgan. Olimning asarda keltirishicha, har bir inson o‘z jamiyatiga loyiq bo‘lib o‘sib-unmog‘i lozim. Asarda o‘quvchilarni jalb etgan jihatlardan yana biri shuki, unda turli topishmoq va jumboqlarni yechish yo‘nalishlaridan ham ustalik bilan foydalanilgan va bu o‘z natijasini ko‘rsatgan, o‘quvchilarning asarga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirgan. Bugungi kunda bu muammoli ta’lim deb nomlanadi. “Qutadg‘u bilig” asaridagi Kuntug‘mish Elig va Oyto‘ldi bahsiga e’tibor beraylik. Bu munozarada Yusuf Xos Hojib ushbu Elig Oyto‘ldiga joy ko‘rsatganda, Oyto‘ldi joyga o‘tirmagani, “podshoh yonida menga joy bo‘lmaydi” - deya so‘zlagani, Oyto‘ldi koptok ustiga o‘tirib olgani, “mol-

davlat shu koptok kabidir, bir tekis turmaydi” - deb aytgani, Elig unga qaraganida ko‘zlarini yumib olgani – bu davlat ko‘r inson misolidir. Bu bilan muallif kimda-kim unga bog‘lansa, qattiq o‘rganib qolishini tushuntiradi. Yuzlarini berkitib olgani esa, mol-dunyoga, davlatga ishonma, u jafo keltiradi, deganidir. Asarni o‘rganib, uning mag‘zini chaqar ekanmiz, Yusuf Xos Hojibning ta’lim-tarbiyaga, komil inson shaxsiga naqadar e’tibor berganligining guvohi bo‘lamiz. Shuning uchun ham ushbu asar insonni har tomonlama komillik sari yetaklovchi asarlarning sarasidir, desak adashmagan bo‘lamiz.

Asosiy qism

Yusuf Xos Hojibning falsafiy fikrlari orasida ideal shaxs, ideal jamiyat va ideal davlat haqidagi fikrlarni ham uchratish mumkin. Jumladan, ularni qanday shakllantirish lozimligi, ideal shaxs aslida qanday fazilatlarga ega bo‘lishi lozimligi, buning uchun nimalarga e’tibor berishi lozimligi, mansabdor shaxslarning o‘zaro, oilaviy, xalq va yurt bilan munosabatlari qanday olib borilishi kerakligi kabi ijtimoiy masalalarning falsafiy sistemasi ishlab chiqilgan. Adib komil insonni chinakam yetuk shaxs deb hisoblagan. Bu qarash Konfutsiyning barkamol inson borasidagi fikrlariga mos keladi.

Yusuf Xos Hojibning shaxsiy sifatleri haqida fikr yuritganda, uning o‘z davrning yetuk olimi, ko‘pgina fan sohalari bo‘yicha bahsga kirisha oladigan donishmand, ilg‘or fuqaro, yuksak dunyoqarashga ega bo‘lgan faylasuf ekanligining guvohi bo‘lish mumkin. Aynan yuqoridagi xislatlarga ega bo‘lganligi boisidan ham muallif o‘z asarida bilimni qadrllovchi, aql-zakovatni ulug‘lovchi, ma’naviyat va ma’rifat posboni bo‘lib gavdalanadi. Jumladan, “Qutadg‘u bilig”da ilm-ma’rifatga, aql-zakovatga maxsus qismlar ajratilgan. Shuningdek, muallif asarning ko‘pgina boblarida, insonlarni ilm o‘rganishga hamda ularni hayotga tatbiq etishga chaqirib, ilm-fanning, yuksak zehn va teran tafakkurning jamiyat hayotida naqadar kerakligini isbotlashga urinadi. Hayotdagi barcha savobli amallar faqatgina bilim bilangina bajariladi, ilm yordamida osmoni-falakka ham parvoz qilish mumkin deb hisoblaydi Yusuf Xos Hojib:

“Jami ezguliklar bilim nafidur,

Bilim hatto osmon sari yo‘l ochur”. [1.30]

Inson yaralganidan buyon to hozirgi kunga qadar bilimli va zakovatli hukmdorlarning adolatli boshqaruv usulidan foydalanganligi, ilm va aql yordamida jamiyat a’zolari o‘rtasidagi xunuk va jirkanch amallar to‘xtatilganligi, behayolik, razillikka barham berilganligi to‘g‘risida so‘z yuritib, podshoh va beklarni chuqur bilim va yuksak aql yordamida yurti boshqarishga chorlaydi. Nega deganda, xalq va mamlakatni idora etishda ilm va aqlga tayanish mumkin va asosiysi bunday boshqaruvga davlat hamisha yuksalib boraveradi. Aynan shu boisidan ham podshoh-u amirlar, beklar-u zodagonlar alq-zakovatli, yuksak dunyoqarashga ega shaxslar bo‘lmoqliklari shart.

“Qutadgu bilig” asarining asosiy mavzularidan biri odamlar orasida olib boriladigan muomala va munosabatlar, jamiyatning o‘zaro aloqalaridagi muhim elementlardan, asosiy shartlaridan biri bo‘lgan hurmat va ehtirom hisoblanadi.

Katta yoshli insonlarning o'zidan kichiklarga va, o'z navbatida, kichiklarning o'zidan katta yoshli insonlarga, davlat amaldori, mansabdor shaxslarining o'z hukmronliklaridagi insonlarga, shuningdek, qaram shaxslarning ma'murlariga, ijtimoiy qatlamlarning bir-birlariga, hattoki, farzandlarning ota-onalariga, ota-onalarning farzandlariga nisbatan ko'rsatilishi kerak bo'lgan hurmat va ehtirom qoidalari mutafakkirning e'tiborida bo'lgan. Oilada, jamiyatda, yurti idora etishda o'zaro ehtirom hamda hurmat ko'rsatish qanchalik muhim ekanligini ko'rsatib berishga uringan faylasuf hayotiy voqealar, ta'sirchan personajlar, hikmatli so'zlardan foydalanadi va shu orqali har bir o'quvchini hurmat va ehtirom ko'rsatishga undaydi. Adib, o'zaro ehtirom hamda hurmatga birdaniga yetishib bo'lmashligini, avvalo bu yo'lda to'g'ri yo'lga qo'yilgan tarbiya lozimligi, bolalar dunyoga kelganda ularga kichikligidan odob-axloq elementlarini puxta o'rgatish shartligini ham uqtirib o'tadi.

Mutafakkir o'z asarida inson kamoloti haqida to'xtalib, kishi jamiyat bilan uzviy mutanosiblikdagina tom ma'nodagi kamolotga erishadi, deb hisoblaydi. Buning uchun unga yaxshi insonlar bilan o'zaro hamkorlik, halol mehnat kabi elementlar asqotishini, odam va ilmni hech qachon ajratib bo'lmashligini, komil inson hamisha ilm-u irfon etagini tutishi kerakligini ta'kidlaydi:

“Olim odam – qimmatbaho dinordir,

Nodon, johil odam – qimmatsiz soxta puldir”.[2.80]

Do'st tanlashda uning ezgu sifatlariga e'tibor qaratish lozimligi ham adib e'tiboridan chetda qolmaydi. Zero, kishilar xayrli va savobli amallar orqaligina katta natijalarni, yaxshiliklarni kutish mumkin bo'ladi. Zero “... tikan ekib hosiliga uzum olmaysan” deya ta'kidlaydi muallif.

Yusuf Xos Hojib jamiyat a'zolarini kelishtiruvchi ideolog sifatida ham shuhrat qozondi. Jumladan, adibning hayotiy falsafasi ham kelishuvchanlik edi. Faoliyati davomida ham u ko'p bora jamiyat nomidan davlatning mansabdor shaxslariga va, o'z navbatida, beklar-u amirlar nomidan xalqqa muhim talab va vazifalar qo'ya oldi. Shu orqali, kelishuvchanlik bilangina hukumat va raiyatning o'zaro munosabati yaxshilanishi, hukmdorlarning hokimiyati mustahkamlanishi va zodagonlarning hurmati ortishi, oddiy aholi esa farovon, tinch-totuv yashashga erishishini ta'kidlagan.

Ammo jabr-zulm, adolatsizlik, ilmsizlik, jaholat urf bo'lgan bu davrda insof-u adolat, xayr-u saxovatga chaqiruv nochor kimsalar, qashshoqlar, beva-yu bechoralarning ahvoliga ichi achishi uchun yuqori tabaqa vakillari va hukmron sinflarni bundan ogoh etishga, boyliklarini saqlab o'tirmasdan, muhtojlarga tarqatish asnosida mamlakat farovonligiga hissa qo'shishga chorlagan. Zero, bu zodagon sinf vakili bo'lgan Yusuf Xos Hojib uchun ham ulkan natija bo'lardi va undagi jasurlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, ijtimoiy adolat kabi ijobiy xislatlarning amaliy ifodasi edi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda adibning ideali o'tmish, hozirgi zamon, avval yashagan odamlar bo'lgan. Yusuf Xos Hojib tarixni tasavvur qilib, uni katta

hayajon bilan yodga oladi. O'zi yashayotgan davrni o'tmish zamoni bilan, o'z davri insonlarini avval yashab o'tgan odamlarga solishtiradi. U bilimli kishilar qadri oyoq osti bo'layotganini, bilimsiz odamlar muvaffaqiyatga erishayotganini, hasad, gina-kudurat, fisq keng avj olganini, halollik o'z o'rnini haromga bo'shatib berayotganligini, rostgo'ylik, to'g'ri so'zlilik kabi ezgu xislatlar yo'qolib borayotganligini, g'irromlik, yolg'on, mehirsizlik, dil og'ritish, xiyonat, qahr-u g'azab, aldov kabi jirkanch sifatlar keng tomir otib borayotganligini, jamiyat tartiboti izdan chiqayotganini, xalq urf-odatlarini o'z ahamiyatini yo'qotayotganini, kichkinalarda yaxshi xulq, kattalarda tarbiya buzilganligi, hurmatsizlik ko'payganini o'kinch bilan xatga oladi. Asosiysi, "o'tganlar jamiyatdagi bu illatlarning boisini aytib berganlarida, biz bularga barham bergan bo'larmidik"- degan to'xtamga keladi muallif.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Каримов Қ. Илк бадийи дoston. – Тошкент, 1976. – 30 б.
2. Наринбаев А. Философские взгляды Юсуф Баласагунского. "Universum: Общественные науки" журнал. 2022. № 1 (80). <https://7universum.com/ru/social/archive/item/12948>
3. Ҳошимов Ш. "Қутадғу билиг"нинг ҳозирги кун жаҳон давлатчилигида юзага келаётган ижтимоий муаммоларни бартараф этишдаги ўрни / "Жаҳон туркологиясининг буюк обидаси "Қутадғу билиг" ва уни ўрганишнинг долзарб масалалари" мавзусидаги халқаро конференция тўплами. – Тошкент, 2020. – Б. 72.
4. Маликов Б.Қ. Тарихий сиймолар давлат бошқаруви тизимида давлат хизматининг ўрни ҳақида // Multidisciplinary Scientific Journal. November, 2023, – В. 78-79. <https://t.me/ares.uz>
5. Salimov B.L. The philosophical role of dialectical categories in human life // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume: 1, Issue 6, 2021. – В. 406-410.
6. Салимов Б.Л. Ижтимоий муносабатларнинг коммуникация ва транспорт тизими билан детерминистик боғлиқлигининг гносеологик таҳлили: Фалс. фан. док. ...дис. – Тошкент, 2022. – 224 б.